
CHINNICHILIK KOMPANIYASIGA TASHRIF

Avval xabar berib o'tganimizdek, Rishton tumani delegatsiyasining Xitoy mamlakatiga tashrifi davom etmoqda. Guandon ulkasi, Chouju shahri chinichilar shahri.

Bugungi tashrif davomida tumanimiz delegatsiyasi a'zolari ushbu shahrdagi ustaxonalarda bo'lib, u yerdagi ishlash jarayonlari bilan tanishishdi va fikr almashishdi. Ushbu shahardagi yirik chinichilik "Houda" kompaniyasi rahbari Chen je Min va zavod injenerlari bilan Rishtonga zamonaviy chinni mahsulotlari ishlab chiqish liniyalarini o'rnatish masalasi, Rishton chinisi loyi va siri (frit) tarkibini yaxshilash buyicha loyihalar muhokama qilindi.

Ushbi zavod 9 qavatli binoda joshlashgan bulin jami 30 ming kvadrat maydonga ega. Yillik quvvati 50 million dona chinni mahsulotlari. Oktyabr oyining oxirida zavod mutaxassislaridan iborat delegatsiyani Rishtonga safari borasida kelishivga erishildi. Rishton tumani delegatsiyasining Xitoy davlatiga tashrifi davom etmoqda.

2024-09-25 09:33:51